

“O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan 2019 yil I chorakda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijalari to‘g‘risida


1.04.2019

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, moliyaviy ahvolni yaxshilash, davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarga to‘lovlarni amalga oshirishda ijobiy natijalarga erishildi.


2019 yil I chorakda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o‘shish sur‘ati 105,7 foizni, xalq iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish o‘shish sur‘ati 104,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Natura ko‘rinishida esa, un ishlab chiqarish 104,7 foizni, omixta yem 100,3 foizni, non va non mahsulotlari 100 foizni va makaron mahsulotlari ishlab chiqarish 100 foizni tashkil etishi kutilmoqda.


2014-2019-yillarda non va non mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi



2014-2019-yillarda makaron mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi



2014-2019-yillarda omixta yem ishlab chiqarish dinamikasi



2019 yil I choragida investitsiya va tarmoq dasturlari bo'yicha 132 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi.

2019 yil I choragida kutilayotgan ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'sish sur'ati%
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	105,7
Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarish	104,5
Un	104,7
Omixta yem	100,3
Non va non mahsulotlari	100,0
Makaron mahsulotlari	100,0

2019 yil I chorakda investitsiya dasturlari doirasida:

"To'rtko'ldonmahsulotlari" AJ tegirmon sexini tashkil qilish
 "Juma elevatori" AJ tegirmon sexini tashkil qilish
 "Surxondaryodonmahsulotlari" AJ tomonidan omixta yem ishlab chiqarishni tashkil qilish
 "Namangandonmahsulotlari" AJ tegirmon sexini modernizatsiya qilish
 "Koson don" MChJ tegirmon sexini modernizatsiya qilish
 "Jomboydonmahsulotlari" AJ tegirmon sexini modernizatsiya qilish
 "Surxondaryodonmahsulotlari" AJ "Alpomish un" filiali tegirmon sexini modernizatsiya qilish va omixta yem sexini modernizatsiya qilish hisobiga granulalangan (ekstruder) yem ishlab chiqarishni tashkil qilish
 "Oqoltindonmahsulotlari" AJ tegirmon sexini modernizatsiya qilish
 "Toshkentdonmahsulotlari" AJ tegirmon sexini modernizatsiya qilish
 "Farg'onadonmahsulotlari" AJ tegirmon sexini modernizatsiya qilish
 "Shovotdonmahsulotlari" AJ tegirmon sexini modernizatsiya qilish
 bo'yicha loyihalar uchun moliyalashtirish manbalari ochildi.